

## O'ZBEKISTONDA TUG'ILGANAR SONI AHOLINING YUQORI SUR'ATDA O'SISHINI TA'MINLAMOQDA

**Dusnayev Sherzod Ergashevich**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi  
boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
i.f.f.d. (PhD)**

**E-mail: [census@stat.uz](mailto:census@stat.uz)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.14592132>**

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining yuqori sur'atlarda o'sishini tug'ilish ko'rsatkichi ta'minlamoqda. Demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyati tug'ilish darajasining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari, o'lim darajasining past ko'rsatkichlari, tashqi migratsiyaning bir muncha salbiy saldosi, jami aholida qariyalar ulushining ortishi, parallel ravishda aholining o'rta yoshlilar sonining ko'payishi, urbanizatsiya jarayoni ortayotgani bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston MDHdagi eng yuksak demografik salohiyatga ega davlat hisoblanib, 2022-yilda mintaqa aholisining 12,5 foizi va Markaziy Osiyo mintaqasining 45,7 foizi mamlakatimiz hissasiga to'g'ri kelgan. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston 242 ta davlat ichida 41-o'rinda turadi.


Aholining tabiiy harakati to'g'risidagi, jumladan tug'ilganlar soni to'g'risidagi ko'rsatkichsiz mamlakatning demografik holatini aniqlashning imkoni yo'q. Shu nuqtai nazardan demografik jarayonlarni o'rganishda birinchi bo'lib tug'ilganlar va o'lganlar soni hamda nikohlar va ajralishlar sonini tizimli tahlil qilishdan boshlanadi.

Tug'ilish – bu biologik tabiatga va qat'iy ijtimoiy-iqtisodiy belgilarga ega bo'lgan murakkab demografik hodisa hisoblanadi. Demografiyada tug'ilish deganda, bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelishi jarayoni tushuniladi. Hozirgi o'lim darajasi past bo'lgan sharoitlarda tug'ilish jarayoni aholi takror barpo bo'lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi va yosh jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo'nalishini belgilaydi.

Tug'ilish darajasidagi ijtimoiy va biologik omillar mutanosibligi muqobil bo'lmay, balki jamiyat va uning tarkibi, ijtimoiy institutlarning rivojlanishi jarayonida o'zgarib boradi. Shu o'rinda aytish joizki, tug'ilish evolyutsiyasidagi asosiy yo'nalish bu biologik omil rolining passayishi va ijtimoiy omil ahamiyatining o'sib borishidir.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2023-yil O'zbekistonda tug'ilganlar mutlaq sonining eng yuqori ko'rsatkichi qayd etilgan. Shuni alohida takidlash joizki tug'ilishning nisbiy ko'rsatkichi 1991- yilda 34,5 promille va 1995- yilda 29,8 promilleni tashkil qilgan (1-rasm).

1-rasmdan ko'rinib turganidek, 1991–2004-yillarda tug'ilganlar mutlaq soni qisqargan, bundan keyingi yillarda esa ortgan. Olib borilgan tahlillarga ko'ra, 2005–2023-yillar mobaynida har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tug'ilganlar soni 20,3 nafardan 26,4 nafarga ko'paygan. Hududlar kesimida olib qaraganda tug'ilish darajasi Surxondaryo (30,9 ‰), Qashqadaryo (28,9 ‰), Namangan (27,9 ‰), Jizzax (27,4 ‰) va Samarqand (27,4 ‰) viloyatlarida yuqori bo'lgan.



### 1-rasm. O'zbekistonda tug'ilganlar mutlaq soni va tug'ilish koeffitsiyenti dinamikasi

Xalqaro mezonlar bo'yicha, "tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti qiymati 16,0 ‰gacha bo'lsa – tug'ilish darajasi "past", 16,0 – 24,9 ‰ – "o'rtacha", 25,0 – 29,9 ‰ – "o'rtachadan yuqori", 30,0 – 39,9 ‰ – "yuqori", 40,0 ‰ va undan yuqori – "juda yuqori" hisoblanadi". Mazkur mezon bo'yicha O'zbekiston tug'ilish darajasi "o'rtachadan yuqori" bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Tug'ilishning umumiy koeffitsiyentini baholash mezoni asosida O'zbekiston Respublikasi hududlari guruhlariga ajratildi (1-jadval).

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2000-yil tug'ilish darajasi Toshkent shahrida – "past", Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida "o'rtachadan yuqori", qolgan hududlarda esa "o'rtacha" bo'lgan. 2010-yilda respublikaning barcha hududlarida "o'rtacha", 2023-yilda esa faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent va Xorazm viloyatlarida tug'ilish darajasi "o'rtacha", Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri "o'rtachadan yuqori", birgina Surxondaryo viloyati "yuqori" toifaga o'tgan.

#### 1-jadval

### O'zbekiston Respublikasi hududlarini tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti bo'yicha tasnifi

| Tug'ilish darajasi, ‰ | Yillar          |                                               |                                               |
|-----------------------|-----------------|-----------------------------------------------|-----------------------------------------------|
|                       | 2000            | 2010                                          | 2023                                          |
| past (16,0 gacha)     | Toshkent shahri | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi |

| Tug'ilish darajasi, ‰              | Yillar                                                                                                                                  |                                                                 |                                                                                                              |
|------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                    | 2000                                                                                                                                    | 2010                                                            | 2023                                                                                                         |
| O'rtacha (16,0 – 24,9)             | Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Toshkent va Xorazm viloyatlari | Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri | Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent va Xorazm viloyatlari                                        |
| O'rtachadan yuqori (25,0 – 29,9)   | Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari                                                                                                  | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi                   | Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri |
| Yuqori (30,0 – 39,9)               | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi                                                                                           | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi                   | Surxondaryo viloyati                                                                                         |
| Juda yuqori (40,0 va undan yuqori) | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi                                                                                           | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi                   | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi                                                                |

Qishloq joylarida tug'ilish darajasi shahar joylariga qaraganda bir muncha yuqori. Tahlillarga ko'ra, 2022-yil Toshkent (30,5 ‰) va Surxondaryo (30,2 ‰) viloyatlari 2023-yilda esa Surxondaryo (32,6 ‰) viloyati qishloq joylarida tug'ilish darajasi "yuqori" mezon bo'yicha baholandi.

Aholi statistikasida tug'ilish darajasini aniq statistik baholash maqsadida tug'ilishning yig'indi koeffitsiyentidan (bir ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni) keng foydalaniladi. Mazkur koeffitsiyentning qiymati respublikada – 3,45, shahar joylarida – 3,39, qishloq joylarida esa 3,31 nafarni tashkil etadi.

Ilmiy ishimizda tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti qiymati bo'yicha hududlarni quyidagi guruhlariga ajratamiz (2-jadval).

## 2-jadval

**Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti qiymati bo'yicha hududlarning statistik guruhlanishi**

| Tug'ilish darajasi      | 2000-yil        | 2010-yil                                      | 2023-yil                                      |
|-------------------------|-----------------|-----------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Juda past (1,8 dan kam) | Toshkent shahri | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi | Mazkur daraja bo'yicha hududlarda kuzatilmadi |

|                                      |                                                                                                  |                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                          |
|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Past<br>(1,8 – 2,4)                  | Andijon, Buxoro,<br>Navoiy, Toshkent<br>va Farg'ona<br>viloyatlari                               | Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi, Buxoro,<br>Navoiy, Namangan,<br>Sirdaryo, Toshkent,<br>Farg'ona, Xorazm<br>viloyatlari va Toshkent<br>shahri | Mazkur daraja<br>bo'yicha hududlarda<br>kuzatilmadi                                                                                                                      |
| O'rtacha<br>(2,4 – 3,0)              | Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi,<br>Namangan, Samar-<br>qand, Sirdaryo va<br>Xorazm viloyatlari | Andijon, Jizzax,<br>Qashqadaryo, Samarqand<br>va Surxondaryo<br>viloyatlari                                                                    | Qoraqalpog'iston<br>Respublikasi                                                                                                                                         |
| O'rtachadan<br>yuqori<br>(3,0 – 4,0) | Surxondaryo,<br>Qashqadaryo va<br>Jizzax viloyatlari                                             | Mazkur daraja<br>bo'yicha hududlarda<br>kuzatilmadi                                                                                            | Andijon, Buxoro,<br>Jizzax, Qashqadaryo,<br>Samarqand,<br>Surxondaryo, Navoiy,<br>Namangan, Sirdaryo,<br>Toshkent, Farg'ona va<br>Xorazm viloyatlari,<br>Toshkent shahri |
| Yuqori (4,0<br>va undan<br>yuqori)   | Mazkur daraja<br>bo'yicha hududlarda<br>kuzatilmadi                                              | Mazkur daraja<br>bo'yicha hududlarda<br>kuzatilmadi                                                                                            | Mazkur daraja<br>bo'yicha hududlarda<br>kuzatilmadi                                                                                                                      |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, 2000-yilda tug'ilish darajasi Toshkent shahrida "juda past", Andijon, Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg'ona viloyatlari "past", qolgan hududlarda "o'rtacha" va "o'rtachadan yuqori" bo'lgan. Respublikada undan keyingi yillarda tug'ilish darajasi ortib, 2023-yilda birgina Qoraqalpog'iston Respublikasida tug'ilishning yig'indi ko'effitsiyenti qiymati "o'rtacha", qolgan barcha hududlarda "o'rtachadan yuqori" bo'lgan.

Tadqiqot ishimizda tug'ilishning maxsus va yosh guruhlari ko'effitsiyentlarini ham hisoblaymiz. Hisob-kitoblarimizga ko'ra, tahlil qilinayotgan davrda tug'ilishning maxsus ko'effitsiyenti yil sayin ortib borgan. Agar 2000-yilda tug'ilishning maxsus ko'effitsiyenti 82,6 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu qiymat 103,9 promillega teng bo'lgan yoki 21,3 punktga ortgan. Bu davrda tug'ilishning maxsus ko'effitsiyenti shahar joylarida 65,6 promilledan 101,1 promillega, qishloq joylarida esa 93,6 promilledan 106,9 promillega ortgan.

Ko'rilayotgan davrda tug'ilishning yosh guruhlari ko'effitsiyentida ham o'zgarishlar qayd qilingan. Jumladan, 2000–2023-yillarda 20 yoshgacha, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 yosh guruhidagi ayollarda tug'ilish darajasi ortgan, qolgan yosh guruhlarida esa kamaygan. Shu bilan birga, tug'ilishning eng yuqori ko'rsatkichi 20-24 yosh (254,7 ‰), 25-29 yosh (202,4 ‰) va 30-34 yosh (127,8 ‰) guruhida qayd qilingan.

Bugungi kunda oilada tug'ilishlar sonining ko'payishiga quyidagi omillarni keltirish mumkin:

1980–1990-yillarda mamlakatda tug'ilishlar soni yuqori darajada qayd etilgan mazkur davrda tug'ilgan ayollarning tug'ish yoshiga yetganligi, ya'ni reproduktiv salohiyatning yuqoriligi;

Mamlakatimiz oilalarida tug'ilayotgan chaqaloqlarning 86,2 foizi 20-34 yosh guruhidagi ayollarga to'g'ri kelishi;

nikoh yoshida (20-30 yosh) erkak va ayollar nisbatining tengligi;

nikohning yuqori darajasi (yiliga o'rtacha 300 mingdan ortiq nikoh qayd etiladi);

nikohni barqarorligi (har 10 ta tuzilgan nikohga 1 ta ajrim to'g'ri keladi);

mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, odamlar moddiy ahvolidan yaxshilanishi;

tibbiyotning rivojlanganligi va h.k.

### References:

1. Abdurahmonov Q.X., va boshqalar. Demografiya: darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2014. – 284-b.
2. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. Demografiya: o'quv qullanma. – T.: Noshir, 2011. – 119-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 387-sonli qarori. Toshkent. 2016-yil 14-noyabr. <https://lex.uz/docs/3064981>
4. "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining qarori 2023 yil 24 maydagi 10-son qarori. <https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz/>.
6. Sh.Dusnayev. O'zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni iqtisodiy-statistik baholash: Avtoreferat. №43. 2023.